



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



2024-yil 3-avgust, shanba,
90 (23.967)-son

KUN
HIKMATI

Inson
iztiroбли
онларидагы
бaxтнig
mohiyatini
tushunib
yetadi



BIZ BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

↓ Sayyor qabul

Odamlar hokimdan nima so'rayapti?

Bundan bir yarim yillar oldin viloyat hokimining sayyor qabuliga kelganlar soni mingdan ziyod ekanini ko'rib hayron qolganman: Shuncha muammo shu yerga qadar ko'tarilgani tuman, shaharlardagi tashkilotlarda odamlarning masalasi hal bo'Imaganini anglatmasmikin, degan xayolga borganman. Qolaversa, boshqa rahbarlar sayyor qabullarida 20-50 nafar odamga ko'zim o'rgangan ekan o'shanda. Kecha yana viloyat hokimining sayyor qabuliga bordim, bu safar ham murojaat qiluvchilar mingdan kam emas.



Bu, birinchedan, "mening muammomni faqat viloyat hokimi hal qilishi mumkin" degan ishonch bo'lsa, ikkinchi tomondan, barcha muammoning o'z "egasi", tizimi bo'lgani holda hali ham minglab odamlar viloyat hokimi qabuliga oshiqishi joylarda bo'shqaruv idoralar faoliyatiga berilgan baho, nazarimda.

Umuman, burchalik ko'p murojaatlar to'planishining o'zi bir mavzu ekan. Ba'zan tahririyata biror soha mas'ulining hisobotini ko'tarib kelishadi faoliyatimizni yoritaylik deb. Hisobotda "yilning shu davriga qadar aholidan tusghan ... ta shikoyat va murojaatlar ijobji hal etilgani" mammuniyat bilan qayd etildi. Bizda esa savol tug'iladi: bu shikoyatlarni ijobji hal etish mumkin ekan, nega shikoyat darajasiga yetgan, nega joyida, shikoyat bo'limasidan oldin hal bo'Imagan?

Viloyat hokimi sayyor qabuliga kelganlarning ham aksariyati aytgan muammolar aslida joyida hal etish mumkin bo'lgan masalalar. Shuning uchun ham, oldin aytanimizdek, bunday yirik sayyor qabullardan keyin albatta, joyida hal etsa bo'ladigan murojaatlarning hududiyligiga e'tibor qaratish, ayniqsa, ayni masala bo'yicha oldin qayerlarga murojaat etilgani va qay taripa «organiganiga» aniqlik kiritilishi shart.

Masalaning yana bir qancha tomonlari bor, albatta. Qabulda hali ham "menga uy olib bering", "menga pul bering" (moddiy yordam) deb keluvchilar bor ekan. Viloyat hokimi esa bir necha marta "Biz sizga uy olib berolmaymiz, bunday tartib yo'q, subsidiya oling. Ammo bunga ham aralasha olmaymiz, buning o'z talablari, nizomi bor, buyruq bilan hal bo'Imaydi" deb eslatishiga to'g'ri keldi.

Ammo bizga eng ta'sir qilgan bu ham emas. Qabulda sud bilan bitadigan ishlar yuzasidan ham ko'plab murojaat bo'lar ekan. Nega sudlar bilan bitadigan ish uchun fuqarolardan idoralariga emas, aynan hokimga kelishi jiddiy o'yantiridigan masala, albatta. Hatto sud qaroridan norozi bo'lib qabulga kelganlar ham bo'ldi. Ularga bu kabi masalalar bilan qayerga murojaat etish lozimligi tushuntirildi.

Nafaqat Samarganda, ko'plab hududlarda uchraydigan masala – noqonuniy qurilishlar bo'yicha ham shikoyatlar ko'

↓ Sayyor qabul

YUNESKO shafeligidagi an'anaviy "Sharq taronalari" o'n uchinchi xalqaro festivali bu yil ilk bor Samarqand xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" majmuasida o'tkazildi. Ayni paytda festivalga tayyorgarlik jarayonlari qizg'in davom etmoqda.

– Ko'pchilik bu galgi festival uchun nega "Boqiy shahar" majmuasi tanlanganini so'ramoqda, – deydi rejissyor Shamsiddin Usmonov. – Ma'lumki, moddiy madaniy merosimiz bo'lgan Registon ansambl tarixiy ahamiyatga ega. Ushbu yodgorlikni asrab-avaylash, yurtimizga kelayotgan sayyoohlariga qadimiy obidalarmizni o'z holicha ko'rsatish, qolaversa, nafaqat Samangandning, balki butun O'zbekistonning turizm salohiyatini targ'ib etish uchun barcha sharoit yaratilgan yangi turizm markazining imkoniyatlarini ko'rsatish maqsadida ushbu maskan tanlandi.

Keyingi paytda yurtimizda madaniyat va san'at sohasiga, jumladan, baxshichilik, maqom, lazgi va folklor san'atiga katta e'tibor qaratilmoqda. Festival ochilishida milliy san'atimiz bilan birga, sohadagi o'zgarishlarni ham ko'rsatishga harakat qilamiz. Hozirda rassomlar, dekoratorlar, aktyorlar va ommaviy sahnalarda chiquvchilar bilan tayyorgarlik ishlarni olib boryapmiz.

Festivalga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida Madaniyat vazirligining shtabi faoliyat ko'satmoqda. Shuningdek, ijodiy guruhlar, volontorlar bilan ishslash, mehnolarni kutib olish bo'yicha alohida ishchi guruhlar ham tashkil etilgan.



"Boqiy shahar"da "Sharq taronalari" yangraydi

– Hozirga qadar 100 dan ortiq davlat vakillari "Sharq taronalari" festivalida ishtirok etish istagini bildirdi, – deydi viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i o'rinosari G'azal Sirojiddinov. – Ayni paytda mehmonlarni kutib olish, ularga quylilik yaratish hamda festival bo'lib o'tadigan hududda viloyatlardan keladigan hunarmandlar ko'rgazma tashkil etishi uchun yaratilmoqda. Shuningdek, festivalda ishtirok etish uchun 13-14-avgust kunlari respublika ko'rik-tanlovi



Xitoyda qanday kelishuvlarga erishildi?



Xabar qilganimizdek, joriy yilning 22-27-iyul kunlari viloyat hokimi boshchiligidagi delegatsiyaning Xitoy Xalq Respublikasi Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni, Guandun va Jiangsu provinsiyalariga xizmat safari uyushitirildi. Delegatsiya tarkibida 200 ga yaqin samargandlik ham bor edi.

Xizmat safari davomida Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni partiya qo'mitasi kotibi Ma Sinjuy hamda gubernatori Erkin Tuniyaz, Jiangsu provinsiyasi gubernatori Syuy Kunlin, Guandun provinsiyasi gubernatori o'rinosari Chjan Shofu hamda Xitoyning bir qator yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashevular, qayd qilingan hududlarda qo'shma biznes-forumlar o'tkazildi. Uchrashev va tadbirlar doirasida viloyatimiz va Xitoy hududlari o'rtaida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish hamda yangi qo'shma investitsiya loyihibarlarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Bir jumlada

2024/2025-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yaxshi natija qayd etgan TOP-10 maktablar ro'yxatida Samarqand shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktab 150,44 ball bilan yettinchi o'rinni egalladi.

Kattaqo'rg'on shahri tibbiyot birlashmasi mutasaddilari xitoylik hamkasbleri bilan ilg'or tibbiy laboratori tekshiruvlarni amalga oshirish, davlat-xususiy sherkchilik asosida laboratori tekshiruvlarni amalga oshiruvchi MRT apparatini keltirish, jahon standartlariga mos mahalliy dorilarni ishlab chiqarish yuzasidan hamkorlik memorandumlarini imzoladi.

Kattaqo'rg'on tumanining Payshanba shaharchasida 1791-yilda Muhammad Amir Naqibbek tomonidan qurilgan tarixiy bino o'lkashunoslik muzeiyiga aylantirildi.

Qo'shrabot tumanı Shavona mahallasi aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishini yaxshilash maqsadida 5 ta nasos va 2 ta inshoot rekonstruksiya qilinib, 800 metr tarmoq tortildi.

Narpay tumanida aholi ehtiyojidan kelib chiqib, "Oq-tosh Shahzod trans" MCHJ tomonidan "346-Mirbozor-Do'stlik" yo'nalishida avtobus harakati yo'iga qo'yildi.

Nurobod tumanidagi "Nurziyo" xususiy makkabining 3-sinf o'quvchisi Muhammadi Abdurasulov Qirg'iz Respublikasining Issiqko'l shahrida o'tkazilgan xalqaro mental arifmetika musobaqasida 1-o'rinni qo'iga kirildi.

Oqdaryo tumanı Po'latdarxon mahallasi hududidagi serqatnov yo'li yoqasida 1200 metrlig piyodalar yo'lakchasi barpo etildi.

Toyoq tumanı Tepaqishloq mahallasining 1 kilometrlik ichki yo'llari asfalt qilindi, 9 kilometriga shag'allashtirildi, 2,6 kilometrlik piyodalar yo'laklari qurildi, 10 kilometrlik suv tarmog'i tortilib, 3 ta suv inshooti rekonstruksiya qilindi, ikkita transformator, 321 ta beton ustunlar o'rnatildi, 10 kilometr elektr tarmog'i, ikki kilometr internet aloqa tarmog'i tortildi.

Anvar MUSTAQULOV,
"Zarafshon" muxbiri.
Husn ELTOYEV (surat).

(Davomi 3-sahifada) >>>

Partiyalar hayoti

Jomboylik mutasaddilar “tinch qo'yilmayapti”

Tumandagi beshta dolzARB
masala yuzasida soha
mas'ullarining hisobotlari
eshitildi.

Yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan qamrab olish masalasi bo'yicha tuman bolalar va o'smirlar sport maktabi direktorining ta'kidlashicha, maktabda 2000 ga yaqin yoshlar sport bilan shug'ullanadi. Shundan 525 nafari xotin-qizlar bo'lgan tarbiyalanuvchilarning 4 nafari Osiyo championi, 280 nafari respublika va viloyat miqyosidagi musobaqalar sovrindori hisoblanadi.

2023-yil davomida "Besh tashabus olimpiadasi" doirasisda 304 ta sport musobaqasi o'tkazilib, 38 mahalladan 11-30 yoshgacha bo'lgan 19 ming nafardan ortiq yoshlar qamrab olingen.

Ushbu masala yuzasidan deputatlar tomonidan sohadagi kamchiliklari aytib o'tildi. Xususan, maktablar sport zallarda yuvinish joylari talabga javob bermasligi tanqid qilinib, masalani xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasiga kiritishga qaror qilindi.

Tuman investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi mutasaddilariga ko'ra, bugungi kunda tumandagi 6 ta kichik sanoat zonasidagi 12,6 hektar maydonda qiymati 81,3 milliard so'mlik

27 ta loyiha joylashtirilgan. Loyihalar ishga tushirishi natijasida 432 ta yangi ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Yana 4 ta kichik sanoat zonasidagi 5,37 hektar yer maydonini aksjon savdolariга chiqarish choralar ko'rilmoga.

Sohada e'tibordan chetda qolayotgan ishlar qayd etilgan yig'ilish davomida aholi ichimlik suvi ta'minotini yaxshilashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar bo'yicha tuman «Suvogova» korxonasi boshlig'i Rus-tam Rahmatov axborot berdi.

Mavjud 38 mahallada korxonaga tegishli 3 ta oqova suvni qayta ishlash, 1 ta oqova suv ko'tarib berish inshooti, 80 ta ichimlik suv inshooti va 156 kilometr ichimlik suvi, 17 kilometr oqova suv tarmog'i mavjud.

Tuman aholisining toza ichimlik suvi bilan taminlanganlik darajasi 47 foiz, ya'ni 13 254 xonadon (66270 nafar aholi) toza ichimlik suvi mavjud.

Ma'ruzachining ta'kidlashicha, tuman markazida joylashgan Shodlik, Toshkent, Alisher Navoiy, Guliston, Ahmadjon Qurbonov va Samarqand mahallalarida umumiyo qiymati 27 milliard 212 million so'mlik suv inshooti qurilib, 30 kilometr ichimlik suv tarmog'i tortiladi. Natijada 40 ming aholining suvga bo'lgan ehtiyoji qondirilib, ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi yil oxirigacha

81 foizga yetadi.

Aholining tabiiy va suyutirilgan gaz bilan ta'minlanishi bo'yicha "Jomboy tumangaz" filiali boshlig'i, bolalar o'ttasidagi irlsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish borasida tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i o'rinnbosar-larinining hisobotlari tinglandi.

Qizg'in savol-javoblarga boy bo'lgan yig'ilishda rejalashtirilgan ishlarni belgilangan yo'l xaritasidan og'ishmay amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar berildi. Bajarilayotgan topshiriqlar ijrosi deputatlar tomonidan nazoratga olinadigan bo'ldi.

Darvoqe, tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i o'rinnbosari Hamroqul Qo'chqorovning kun tartibidagi masalaga tayyorqarlik ko'rmay kelganligi va deputatlarning savollariga javob bera olma-ganligi e'tirozlarga sabab bo'ldi. Holat yuzasidan mutasaddilarga taqdimnoma kiritish, hisobotni keyingi yig'ilishda qayta eshitishga qaror qabul qilindi.

**Nodir TO'RAYEV,
O'zLiDeP viloyat
kengashi bo'lim mudiri,
tuman kengashi
deputati.**

**Joriy yilda Paxtachi tumanidagi 200 dan
ortiq fermer xo'jaligi 6254 hektar may-
donda el rizqini yetishtirdi.**

— Fermer xo'jaligimiz 2007-yilda tashkil etilgan va har yili pilla, g'allva g'o'za-
dan mo'l hosil yetishtirilmoqda, — deydi
tumanidagi "Oynisa Abdulla Usmon Hamro" fermer xo'jaligi boshlig'i Bobosher Usmonov. — 30 hektar
maydondagi "Grom" navli g'allan-
ing har gektaridan 101 sentner-
dan hosil yig'ishtirib oldik.

**Izzatulla NORQUVVATOV
olgan surat.**

**Joriy yilda Paxtachi tumanidagi 200 dan
ortiq fermer xo'jaligi 6254 hektar may-
donda el rizqini yetishtirdi.**

— Fermer xo'jaligimiz 2007-yilda tashkil etilgan va har yili pilla, g'allva g'o'za-
dan mo'l hosil yetishtirilmoqda, — deydi
tumanidagi "Oynisa Abdulla Usmon Hamro" fermer xo'jaligi boshlig'i Bobosher Usmonov. — 30 hektar
maydondagi "Grom" navli g'allan-
ing har gektaridan 101 sentner-
dan hosil yig'ishtirib oldik.

**Izzatulla NORQUVVATOV
olgan surat.**

Sud hokimiyatining asosiy vazifasi – fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qonunlarni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ijro qilish va qo'llashda qonuniylik hamdaadolatni ta'minlash. Bu 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 15-maqсадida ham o'z aksini topgan.

Prezidentning "Tezkor qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilish kafolatlarini yana da kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ayni maqsad ijosiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur hujjat bilan tizimda tergov sudyasi lavozimi joriy etilmoqda. Ya'ni, 2025-yildan jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida tergov sudyasi lavozimi kiritilib, ular sudaq qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish va majburlov choralarini qo'llash masalasini hamda ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

Tergov sudyasi instituti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u Fransiya tarixida chuquq ildizga ega bo'lib, davlat va jamiat yaratotda mustahkam o'r'in tutgan hamda ishni sudaq qadar yuritish tushish prinzipining amal qilishini ta'minlaydigan xolis, mustaqil institut sifatida shakllangan.

Bugungi kunda Belgiya, Gretsya, Iroq, Ispaniya, Niderlandiya va Xorvatya davlatlarida tergov sudyalarini lavozimi bor. U yaqin o'tmishda Litva, Moldaviya, Estoniya, Latviya, Ukraina, Qozog'iston, Gruziya va Qirg'izistonda ham joriy etilgan.

Xo'sh, tergov sudyasi qanaqasanskiya va majburlov choralarini qo'llash masalasini ko'rib chiqishi mumkin? Hujjatga muvofiq, sanksiylarga qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyoj chorasini qo'llash, qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish, murdan eksgumatsiya qilish, pochta-telegraf jo'natma-

Orif PARDADEV,
**Jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand
shahar sudi raisi,
Zarifa AHMEDOVA,**

**Jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand
shahar sudi sudyasi.**

Osmonga termilgan lalmi hududdan ishlab
chiqarish yo'liga o'tilmoqda

Nurobod viloyatimizdagi hudud jihatidan eng katta tuman. Tumandagi 39 mahallada 160 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Maydoni 486 ming kvadrat kilometr bo'lgan tumanda rasman 4 ming 397 nafar ishsiz qayd etilgan va ishsizlik darajasi 7,2 foizni tashkil etadi.

ta-kichikligi emas, undagi qulaylik va sharoit muhim.

Hozirgi kunda jahonda turizm davlatlarning asosiy daromad yo'nalişishiga aylanish borayotgani hech kimga sir emas. Buni respublikamiz, xususan, Samarganda kelayotgan sayyoohlarni oqimining ko'payganidan ham bilish mumkin. Oddiyigina solishtiradigan bo'lsak, bir necha yuz minglab ahollimizning yil davomida shug'ulanadigan qishloq xo'jaligi sohasi keltiradigan daromadga ko'ra mavsum davomida turizmdan keladigan manfaatdorlik bir necha barobar bo'p. Shu bois tumanimizda ham turizmini rivojlantrish, yangi maskanlar qurish, sayyoohlarni jab qilish rejalarini ishlab chiqidik. Buning uchun Oqsoy mahalasida, Hazrati Dovud qadamjosi atrofida Shveysariya davlatining "Barholet" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Samarqand kanat yo'llari" MChJ tomonidan 13,5 million dollar (12 million dollar xorijiy bank krediti, 1,5 million o'z mablag'i) investitsiya mablag'i hisobiga "sayyoohlarga xizmat ko'rsatish markazi" tashkil etiladi.

CHORVACHILIKDAN SANOATGA

Nurobod haqida gap ketsa, bahorgi yomg'irlar tufayli qiradirli yashillikka burkangan, chorvasi ozuqaga muhto bo'lmagan maskan ko'z oldimizga keladi. Ammo qishloq xo'jaligi, xususan, chorvachilik bilan bir tumanni rivojlantrir bo'lmaydi. Buning ustiga, yetishtirilgan mahsulot, chorva terisi, go'sht, sut qayta ishlanmasinda. Xomashyo tayyorlash bilan esa katta daromadga erishib bo'lmaydi. Bu jihatlar e'tibora olinib, tumanda "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining filiali, qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda.

- Ko'rilgan choralar natijasida 2023-yilda tumanimizdan 9,7 million dollarlik maishiy texnika, plastmassa eshik-romlar va boshqa sanoat mahsulotlari eksport qilindi, — deydi tuman hokimi o'rinnbosari G'olib Nematov. — Bundan tashqari, Hindiston va Xitoyga oqiz-ovqat mahsulotlari qo'shimcha sifatida ishlatiladigan 0,3 million dollarlik kovrak shirasi sotildi.

Natijani yanada yaxshilash uchun o'tgan yillarda ishlamay turgan 10 ta korxona eksport faoliyatiga jab qilinib, ularning umumiy soni 21 taga yetkazildi. Joriy yilda eksport ko'satkichlarini 17 million dollarga yetkazish rejashtirilgan.

Yilning birinchi yarmida tumanimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 0,24 trillion so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan ikki foiz o'sishga erishildi. Import o'rnnini bosuvchi, eksportbop sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yo'iga qo'yildi.

Misol uchun, "Central Asia Company" MChJ negizida kafel mahsulotlari xomashyosini ishlab chiqarish uchun 4,5 million dollar, "Zhongguo Daohu Qiche Zhizhao" MChJ XKK tomonidan yuk mashinalari uchun tirkama ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasiga 3 million dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirildi.

XORIJY SAFARLAR SAMARALI BO'LDI

Tuman rahbarlari va tadbirkorlarning 2023-yil dekabr va joriy yil yanvar oylarida Xitoya safari davomida yuk mashinalari uchun tirkamalar ishlab chiqarish va yig'ishni tashkil etish, kafel mahsulotlari xomashyosini ishlab chiqarish uchun ohak va kvarsni qayta ishlash loyihalarini amalga oshirishga kelishib olingandi. Shuningdek, elektromobillar ehtiyoj qismlari va zaryadlash stansiyalarini ishlab chiqarish chorva mollari yetishtirish hamda naslchilikni rivojlantrish, veterinariya donor vositalari ishlab chiqarish uchun dorivor o'simliklar, dukakkali va chorva ozuqa ekinlari yetishtirish bo'yicha muzokaralar olib borildi. Sabzavotni konservalash, mayda shoxli chorvachilik xo'jaligini tashkil etish, polietilen quvurlar, qishloq xo'jalik texnikalari ishlab chiqarish, soyva makkajo'xori yetishtirish, un va un mahsulotlari, kungabogar yetishtirishni tashkil etish borasida kelishuvlarga erishigandi.

9-10-iyun kunlari Rossiya Federatsiyasining Penza viloyati safarida esa avtomat yonlig'i qo'yish qurilmalari yetishtisha ko'maklashish va ularni ishlab chiqarishni Samarganda mahalliy lashtirish, bolalarga mo'ljalangan konditer mahsulotlari yetishtisha ko'maklashish va ularni tayyorlash loyihalari ko'rib chiqildi. Penza viloyatinining Kamensk tumanida 1000 hektar maydonda birgailikda qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirish, tumanimizda 600 boshga mo'ljalangan uchta go'sht va sut yo'nalişidagi yirik shoxli qora-millat fermalarini tashkil etishga kelishildi.

Penza viloyati ishbilarmonlari bilan jami 40 million dollarlik shartnomalar tuzildi. Hozirda bu kelishuvlarni amalga oshirishga kirishilgan.

Bu loyihalar doirasida yilning birinchi yarmida 11 million 300 ming dollar miqdorida investitsiya o'zlashtirildi. Ko'zda tutilgan loyihalarning amalga oshirilishi bilan Nurobod osmonga termilgan lalmi hududdan sanoat ishlab chiqarish yo'iga o'tgan tumanga aylanadi.

**O'ktam XUDOYBERDIYEV,
"Zarafshon" muxbiri.**

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

MUHIM KELISHUVLAR

Kelishuvlari natijasiga ko'ra, Kattaqo'rg'on tumanida ajratilgan 332 gektar yer maydonida Guandun provinsiyasi kompaniyalari ishtirokida ixtisoslashtirilgan yuqori texnologiya parkini tashkil etishda Xitoy tomoni yaqindan ko'maklashishga tayyorligini ma'lum qilgan.

Past Darg'om tumanida "Samarqand-ShUAR" maxsus sanat texnologik parkini tashkil qilish bo'yicha taklif ham Xitoy tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Muloqotlarga shuningdek, yangi savdo va investitsiya kelishuvlari erishish va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish maqsadida 2025-yil mart oyida Samarqand shahrida Xitoy tadbirkorlari ishtirokida **biznes-forum** o'tkazishga qaror qilindi.

Turizm sohasida aloqalarini rivojlantirish va targ'ib qilish yuzasidan muzokalaralarda Xitoy tomoni Guanchjou-Samarqand yo'naliishida **to'g'ridan-to'g'ri avia qatnovlarni** yo'lg'a qo'yishni bildirgan.

Bundan tashqari, Samarqand viloyati va Guandun provinsiyasi hamda Samarqand shahri bilan Nankin shahri o'tasida **birodarlik aloqalarini** o'rnatish bo'yicha diplomatiq kanallar orqali tegishli hujjat loyihasini ishlab chiqish va kelishish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Guandun provinsiyasi gubernatori o'rbinbosari Chjan Shofu Samarqand viloyatida yaratilgan imkoniyatlardan bilan tanishish va kelgusidasi amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab olish maqsadida **avgust** oyi oxirida Samarqandga tashrif buyurishini ma'lum qildi.

Bundan tashqari, 7-8-avgust kunlari Shinjon-Tianjin savdo-sanoat palatasi rahbari Lin Chin boshchiligidagi bir guruh tadbirkorlar Samarqand shahrida bo'la-di.

Samarqand viloyati va Jiangsu provinsiyasi bir-biriga o'xshashligidan kelib chiqib, hududlar o'tasida tarix, noyob obidalar, madaniyat va san'atni keng targ'ib qilish orqali turizm oqimini oshirish choralar ko'rildigan bo'ldi. Bu borada Xitoy tomoni 2025-yil mart oyida Navro'z bayrami arafasida Nankin shahrida "Samarqand madaniyat kunlari"ni tashkil etadi.

IQTISODIY HAMKORLIK JADALLASHADI

Xizmat safari doirasida Xitoyning bir qator yetakchi korxonalar va tashkilot rahbarlari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Jumladan, Shinjon-Uyg'ur avtonom rayonida joylashgan ishlab chiqish va qurilish kompaniyasi "Xinjiang Production and Construction Corps" rahbari bilan muloqtda viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va tekstil

Xitoyda qanday kelishuvlarga erishildi?



mahsulotlarini ishlab chiqarish masalalari muhokama etilgan.

Natijada qo'shma ishchi guruh tashkil etib, bir oy muddatda loyihalarni amalga oshirishicha qaratilgan "Yo'xaritas'i"ni ishlab chiqib, tasdiqlashga kelishildi.

Bundan tashqari, "Jiangsu Soho Holdings Group" kompaniyasi bilan Kattaqo'rg'on tumanida ipakchilik klasteri, "Urumchi Economic and Technological Development Zone" bilan Samarqand shahrida sanoat zonasida tashkil etiladi.

Yirik quruvchi kompaniyalardan biri "China Construction Engineering" rahbariyati bilan uchrashuvda "Shirin" shaharchasida yuqori va eng so'nggi qurilish texnikalaridan foydalangan holda qator loyihalarni amalga oshirish belgilangan.

"Sailun Group" kompaniyasi vakillari bilan avtomobillar uchun yuqori sifatlari shinalar ishlab chiqarish bo'yicha muloqot olib borildi.

"Royall Lii" kompaniyasi bilan Ishtixon tumanida ko'p tarmoqli shifoxona qurish, "Xinguang Nong Ranch" kompaniyasi bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda parrandachilikni rivojlantirish, "Chongqing Huapu Qingling" kompaniyasi bilan misni qayta ishslash va kabel ishlab chiqarish, "HPF Group" kompaniyasi bilan zamонави logistika markazini qurish bo'yicha kelishuvlarga erishilgan.

Safar yakunlari bilan savdo va investitsiya yo'nalişlarida umumiyyiy qiymati 2,1 milliard dollarlik 158 ta dastlabki kelishuvlarga erishilgan. Shundan, 1,12 milliard dollarlik 111 ta aniq hamda 951,3 million dollarlik 47 ta istiqbolli loyiha ko'rib chiqildi.

EKSPORT HAM YO'LGA QO'YILADI

Nankin, Urumchi va Foshan shahrida "Samarqand savdo uyi" ochildi. Ushbu savdo uyular orqali Xitoy bozoriga viloyatimizda ishlab chiqarilgan barcha turdagi sanoat, qishloq xo'jaligi, qolaversa, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini yetkazib berish va bu orqali viloyatning iqtisodi, investitsiya hamda turizm salohiyatini xitoyliklar orasida keng targ'ib qilish rejalashtirilgan.

Shuningdek, "SAG" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Urumchi shahrida joylashgan past quvvatida ishlab chiqarishni yo'lg'a qo'yishga kelishilgan. "SAG" tomonidan Urumchi shahrida omborxonaga ijaraga olingan va undan viloyatimizning barcha tadbirkorlari ijarasiz foydalananidan bo'ldi.

CHINDAGI YOSHLAR UCHUN YAGONA BAZA YARATILADI

Xabarlingiz bor, viloyat hokimi ishtirokida Xitoya istiqomat qilayotgan yoshlari bilan ham uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda Xitoy Xalq Respublikasining olyi o'quv yurtlarida tahsil olayotgan samarcandlik talabalar bilan birga Toshkent, Qashqadaryo, Navoiy va buxorolik hamda shu yerda faoliyat olib borayotgan 50 dan ortiq vatandoshlar ishtirok etgan.

Suhbat davomida ishtirokchilarning Xitoy hududlari bilan savdo-iqtisodiy, madaniy-gumaniyat, transport-logistika hamda turizm kabi yo'nalişlardagi innovatsion loyihalari hamda hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha takliflari tinglangan.

Vatandoshlarning o'qish va mehnat faoliyatida uchrashuvdan muammolar o'rganilib, ularni hal etish va qo'llab-quvvatlash maqsadida yagona elektron ma'lumatlar bazasi yaratiladi.

Y.MARQAYEV tayyorladi.

muhim rol o'ynab kelmoqda.

Mahalliy va xorijlik sayyoohlarni xitoy-o'zbek xalqining madaniy tarixi bilan tanishtirish uchun Yining shahrida "O'zbek madaniyati hovlisi" qurilgan, Tachengda madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish joyi yaratilgan, "O'zbek xalq muzeysi" tashkil etilgan, atoqli o'zbek adibi Oybek qalamiga mansub "Navoiy" asarining xitoycha nusxasi tarjima va nashr etilgan.

Hozirda "Xinjiang Tongling Silk Road Culture and Technology" korxonasida faoliyat yuritayotgan o'zbek millatiga mansub mutaxassis-olim tomonidan Samarqand viloyatida "IT" texnologik park tashkil etish hamda tarjima apparatlari uchun o'zbek-xitoy tarjima dasturi yaratilmoqda.

MADANIY ALOQALAR HAM E'TIBORDA

Xizmat safari doirasida Shinjon O'zbeklar madaniy tadqiqotlar uyushmasi vakillari bo'lgan ziyo'llar, professor va olimlar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, birlashma 1988-yil 23-mayda Muxtor rayon xalq hukumati ruxsatsi bilan tashkil etilgan. U o'zbek xalqining an'anaviy madaniyati, san'ati va urf-odatlarini targ'ib etish, xitoy-o'zbek madaniyati o'rganish ishlarini olib boradi.

Qayd etilishicha, o'zbek xalqi Shinjonda 20 mingga yaqin aholiga ega bo'lgan chegaradosh miliat sifatida hamisha partiya va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Ular ko'p sonli o'zbek ziyo'llarini tarbiyalab, Shinjonda madaniyat, ma'rifat, fan-teknika, tibbiyot sohalarida

Y.MARQAYEV tayyorladi.

Dunyoning aksar rivojlangan davlatlarida o'rmonlar ko'payib bormoqda va ular daromadli sohaga aylangan. O'rmonlar nafaqat yashillik, toza havo beribgina qolmasdan u yerdagi imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish orqali budjetga salmoqli tushum tushirish mumkin.

ZARAFSHON milliy tabiat bog'i

budjetga boqimanda bo'lishi kerak emas

2020-yil 6-oktabrda "O'zbekiston Respublikasi o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilin-gan. Qarorda respublikamizda o'rmon fondini muhofaza qilish, rivojlantirish, moddiy-teknika bazasini modernizatsiya qilish, sohaga bozor mexanizmlarini hamda axborot-komunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish belgilangan. Kadrlar salohiyatini oshirish hisobiga ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish vazifasi ham qo'yilgan.

Bizda ham mavjud sharoit va qo'yilgan talablardan kelib chiqib, Zarafshon milliy tabiat bog'i davlat hisobidan chiqarib, o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish vaqt kelma-dimik?

Zarafshon milliy tabiat bog'i idagi 7 ta bo'limdan 4 tasi o'rmon bilan qoplangan, 3 ta bo'lim qishloq xo'jaligi maqsadida foydalanib kelinadi. Samarqand shaharga tutash hudud bo'lganligi sababli tajriba tariqasida 1 ta bo'limni ekoturizmni rivojlantirish uchun shaffof, oshiq tanlov asosida ijara berish maqsadga muvoqif bo'lardi. Aslida qo'riqxona maqomidan Zarafshon milliy tabiat bog'i nomiga o'zgartirishdan maqsad ana shu emasmi?

Mahalliy aholi yirik shoxli chorva mollarini bog' balansidagi muhofaza etiladigan tibbiy hududlarga boqib keladi. Hozirgi vaqtida 4-5-6-7- bo'lim

hududida mahalliy aholi 200 gektarga yaqin yer maydonidan qishloq xo'jaligi maqsadida foydalanib kelmoqda. Solishtirish uchun, Bulung'ur tumanida shu toifadagi bir gektar yer maydonini bir yilga (bir msumga) dehqonchilik uchun ijara olib foydalanish 20-25 million so'm, Jomboy tumanida 15-20 million so'm atrofida. Milliy bog' balansidagi yerlarning ham yaqin atrofida biroz arzonroq narxa oshiq tanlov asosida (auksion) ijara berilsa, yaxshigina tushum bo'ladi. Masalan, o'ttacha 15 million so'mdan, jami 200 gektar yer maydoniga bir yillik tushum uch milliard so'mni tashkil etadi. Bunda ijara chig'ligi getartiga 6-8, 4-8, 5-4, 5-10 shaklda manzaroli yoki ihota terakzorlar barpo etib ko'chat (nihol) orasida dehqonchilik qilish imkoniyati beriladi. Natijadan tez orada milliy bog' 25-30 yil oldingi yashillikka burkanadi, qaytadan o'monzor barpo bo'ladi va tashkilot moliyaviy boqimandalikdan chiqib, bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tadi. Bu bilan manfaatlar to'qnashivi va korrupsiyaning ham oldi olinadi.

Yana bir masala. Zarafshon milliy tabiat bog'iiga ham mutaxassislar oshiq tanlov asosida ishga olansa, bog'ning kelajagi va kelajak avlod manfaatlariga xizmat qilgan bo'lardi.

E.XOLMANOV,
Zarafshon milliy tabiat bog'i monitoring bo'limi mutaxassis.

**DA'VOLAR BO'LSA...**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasida marhum Saliyeva Norbibiga (1989-yil 18-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan meirosxo'rlarning Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zairovna notarial idorasida marhum Xolmatov Lutfillo Abdullayevichga (2023-yil 27-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan meirosxo'rlarning Bahromova Feruza Zairovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Muradova Valentina Ivanovna (2024-yil 24-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan meirosxo'rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 41/100-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafraz Ziyoddullayevna notarial idorasida marhum Kurbanov Fayzillaga (2023-yil 12-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan meirosxo'rlarning Ashurova Dilafraz Ziyoddullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafraz Ziyoddullayevna notarial idorasida marhum Muxammadiyeva Ulukga (2014-yil 19-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan meirosxo'rlarning Ashurova Dilafraz Ziyoddullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Turaqulov Suvan Burxanovichga (2021-yil 16-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan meirosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 67-J uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamjon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Nazarov Safiyaga (2023-yil 23-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan meirosxo'rlarning Norqulov Kamjon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Fuqaro Hamroqulov Ozodjon Bobomurod o'g'liga tegishli Samarqand shahri "Nafosat" MFY, Nodirabegim ko'chasi, 2-uy, 68-xonadonning kadastr hujjatlari to'plami (kadastr raqami: 14:16:03:02:05:0291:0001:068) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

BEKOR QILINADI

↓ Yonimizdagi odamlar

Samarqand yer yuzining sayqali bo'lsa, Samarqandga ham sayqal bo'lgan insonlar bor. Ularning mehrisiz, mehnatisiz bu yurt gullar quchog'iда yasharmidi, shonu sharaflarga burkanarmidi. Ulug'lari va ulug'vor binolarining dovrug'i olamga ketarmidi?! Shunday insonlardan biri Maryam Bahriiddinovna Shodiyevarid.

GULLARI BARQ URGAN BO'STON



borish opa rahbarligida respublikada birinchibor'lib taomilga kirdi.

Maryam opa eng og'ir kunlari yelkadosh bo'lgan xolasi Nafisa Diveyevani, singillarini o'z qizidek mehr bilan issiq bag'riga bosgan samarqandlik novvoy Habiba Umarovani, o'qituvchilik davrida ustozlik qilgan Valentin Chiryayevni, marhum turmush o'trog'i, taniqli olim Jo'raqul aka Musayevni hamisha mehr va minnatdorlik bilan eslaydi. "Yaxshi odamlar menga yordam qo'lini cho'zmaganlarida g'amlar ostida yakson bo'lardim", deydi.

Maryam opadan yaxshilik ko'rganlar ko'p. Umri el xizmatida o'tganini bilguvchilar va qadrlovchilar ko'p.

Viloyat Buvijonlar maktabining rahbari, nuroniylar faoli Gulbahor Husaynova Maryam opani sira tinchitmaydi. Qayerda tadbirlar o'tkazilsa, yoshlar bilan muloqot bo'lsa, opaning maslahatlarini olishadi, uning hayotiy tajribalariga tayanishadi:

- Maryam Shodiyeva mustaqashe ne'matlarini, bugungi yangilanayotgan O'zbekiston shukuhini hammadan chucherroq his qiladi va tushuntirib beradi, - deydi Gulbahor opa.

Opa salohiyati, o'z ishiga sadoqatli, madaniyatli ayol. Opa bilmasdan gapirmaydilar. Uning bilganlarini, ko'rganlari ni hamma ham bilavermaydi. Odamlarga mehr, yurtga sadoqat, shukronalik qonlariga singib ketgan. Biz yoshimiz ulug' bo'lsa ham opaning maslahatlariga muhtojim. Shuning uchun ham davralarning to'rida. Viloyat Nuroniylar jamg'armasi kengashining a'zosi, eng bilimdon targ'ibotchimiz. Opamizning bo'yalariga qarab qad rostlaymiz, deganlariga ishonamiz. Bizga juda kerak. Uningsiz davralarning fayzi yo'q. Opaning ko'satmalariga qulqoq solsak, xata qilmaymiz. Insonga keksayganda ham maslahatgo'y kerak ekan.

Umrингiz uzoq bo'lsin, Maryam opa. Ushbu she'si siza:

*Gullari barq урган bo'ston siz, опа,
Gulchechaklar unar izlaringizdan.
Odamlar tilida dostonisz, опа,
Ko'ngil shifo topar so'zlarigizdan.*

*Sizsiz qancha dillar xarob bo'lardi,
Qancha adashganlar topolmasdi yo'li.
Sizsiz ezguliklar sarob bo'lardi,
Kel, deb yuksaklikdan cho'zmasangiz qo'li.*

*Siz sevgan dunyoga kelmaydi malol,
Kulib davru davron surishlariningiz.
Yo'li ham, dili ham, qo'li ham halol,
Parilarga o'xshar turishlariningiz.*

*Davralar siz bilan mukammal, ko'rkan,
Aglu mehr ila hammaga boshisz.
Yurtini deganlar yuzga kirarkan,
Siz hali sakson besh, juda ham yoshsiz!*

**Xosiyat BOBOMURODOVA,
shoira, Samarqand xalqaro
texnologiya universiteti professori.**

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 725 nusxada chop etildi. Buyurtma 402. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning sheshbasi, payshamba va shanba kunlari chiqishi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

So'nggi pushaymon

Jurnalist va yozuvchi Xolboy Qosimov – 1954-yil 5-avgustda Bulung'ur tumanidagi Bedana qishlog'ida tug'ilgan. 1981-yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning jurnalistika fakultetini tugatgan. Dastlab «O'zbekiston ovozi» gazetasi, «O'zbekiston» nashriyotida, keyinchalik «Bulung'ur hayoti» gazetasida ishlagan. 1997-2020-yillarda respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi Bulung'ur tumani bo'limi rahbari, «Nuroniy» gazetasi va «Keksailik gashti» jurnalining Samarqand viloyati bo'yicha muxbir bo'lib faoliyat yuritgan. Hozirda «Qadriyat» gazetasi bo'lim mudiri bo'lib ishlab kelmoqda.

X.Qosimovning "Pul va qon", "Grin kard" talvasasi", "Qadriyat" kitoblari chop etilgan.

Quyida 70 yoshni qarshilayotgan ustoz ijodkorning hikoyalaridan birini o'qisiz.



O'n gulidan bir guli ham ochilmagan, hali voyaga yetib ulgurmagan farzandi jinoyatga qo'l urgan ota-onaning iztiroblariyu dod-faryodalarini tasavvur qilish qiyin emas. Buning ustiga, ota-onalari tug'ma nogiron bo'lsa-chi? Ha, bunday oilalarining holatini tasavvur etish achinarli hol. Ular kuchli zarbaga uchradyi, uyasi buzilgan arilardek, o'zlarini qo'yarga joy topolmay, chor atrofqa zir yuguradilar. Tinch, farovon turmushlari bir zumba jahannama yylanadi. Qo'ni-qo'shnilar, qavm-qarindoshlar, qolaversa, mahalla-ko'yi oldida yuzlari shuvut bo'ladi.

Qabib jinoyatga qo'l urgan farzand nahotki bar umr muqaddas sanalgan oila sha'nini bulg'ayotganini, yaqinlari, ota-onasining yuzini yerga qaratib, yuraklariga bedavo dard keltilayotganini, ularning qaddini bukayotganini o'yalamagan bo'lsa?! Bunday qora niyatni kimsalarning holiga voy bo'la-di. Afsus va nadomatlar bo'lsinki, sudning qora kursisida pushaymon bo'lib, bosh egib o'tirgan o'spirin yigit Rishat Veysalov jinoyatga qo'l urayotganda bu haqda mulohaza yuritmadı. Qabib ishi mudhish oqibatlarga olib kelishini xayoliga keltirmadi.

...Rishat esini taniganidan buyon ko'ngli kemptik o'sdi. Uchto'rt yoshida tengqurlari ko'chanli to'ldirib uch oyoqli velosipedda poyga o'yinayotganlari u bolalarning orqasidan piyoda chopdi. Ko'ngli o'ksib, otasiga har kuni velosiped obib bering, deb zorlandi. Shunda otasi har gal titroq, qadoq qo'llarini uning boshiga qo'yib, yuzi, yelkalarini silab: «Olib beraman, o'g'lim, albatta, olib beraman, biroz sabr qilgin», derdi.

Turk millatiga mansub bo'lgan Rishatning ota-onasi tug'ma ko'r, birinchilari guruh nogironlari edi. Onasining bir ko'zi yaqin atrofdagi narsalarini zo'rg'a ko'rardi, xolos. Har

holda ko'chada o'zga bir kishining yordamiga muhtojik sezishmasdi. Shu bois u bozor-o'charga, to'y-ma'rakalariga turmush o'tog'ini doim o'zi bilan birga yetaklab borardi. Shuning uchun shaharda hamma yaxshi tanirdi. Buning ustiga, olti nafr farzandlarini oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazishning o'zi bo'lmaydi. Bolalari yeyman-kiyaman deydi, shirinliklari yegisi keladi. Ikkisining nogironlik nafaqalarini esa bozor-o'chardan, qora qozonni qaynatishdan ortmaydi. Shunday bo'lsa-da, ota-onasi farzandlariga shirin muoma-la qilar, ko'ngillariga qarashardi. Olibadagi nochor muhit, yetishmovchilik sabab bo'ldimi, Rishat maktabda o'qishni davom ettira olmadı. Shunday so'ng yetim qolgan qo'ziday boshini duch kelgan tomonga ura boshladı. Arzimagan pulga qo'ni-qo'shnilariga yuqumshulariga yordamlashdi. Bozorda to'rt-besh kun tirkchilik qilib ham ko'rdi. Biri ikki bo'lmadi. Yoshlik qildi. Texnikaga o'chligi sabab ustalarga shogird tushmoqchi bo'ldi.

Keyingi paytlarda Rishat xayoliga tez-tez erk beradigan bo'lib goldi. Tinchligi buzildi. Endi o'tgan-ketganda ochiq darvozadan ko'zga yaqqol tashlanib turadigan qo'shnisining ixchamgina, ohori to'kilmagan «Minsk» rusumli motosikli ga tez-tez qarab qo'yadigan bo'ldi. Qo'shnisi Tolib aka shu yaqin oradagi kichik bir idorada ishlaydi. Idora uyiga yaqin. Motosiklda qatnashga aslo hojat yo'q. Lekin onda-sonda kechqurunlar, dam olish kunlari bu «matohi» da u yoq-bu yoqlarga chiqib turadi.

**Mazkur ocherkning davomini
ushbu QR-kod orqali
o'qishingiz mumkin.**



**- Otangizing ahvoli og'ir
emish. Anchadan buyon
holidan xabar ololmadik. Jon
omonat, biror kor-hol bo'lib
qolsa, hovli-joy ukangizga
qoladimi? Sizning ham haqin-
giz bor. Esingizdam, onangiz
rahmatli "biz olamdan o'tsak,
chirog'imizni yoqib o'tir,
bolam", deb vasiyat qilardi...**

Mashinasini yuvayotgan Hamidulla qo'lidagi lattani chelakka tashladi-da, xotini Manzuraga ajablanib qaradi.

- Nima deb aljirayapsan, birovg'a o'lim tilaguncha, o'zingga umr tila, nodon xotin. Senga nima yetmayapti, meros qayg'usiga tushib qolibsans? - Hamidulla shu mening xotinimmi deganday Manzuraga tikildi. - Bu gapni bir aytding, ikinchi tilingga olma. Merosxo' - ukam. O'ng qulog'ing bilan ham, chap qulog'ing bilan ham eshitib qo'y! Hech qachon jarim bilan meros talashib, iflos ishga qo'li urmayman.

Hamidullaning dili xufton bo'ldi. Xotinidan buni kutmagan edi. O'zbekchilikda meros talashish azaldan ayb sanaladi. Ota-ona olamdan o'tsa, hovli-joy kenja farzandga qoladi. Bu - milliy qadriyat, yozilmagan qonun. Ota go'ri - qoziqxonaning hojati yo'q. Bu an'anu unutilib, oyoq osti bo'lib boryapti. Ochko'zlik, nafs balosi odamlarning ko'zini ko'r, qulog'ini kar qilib, mehr-oqibat, jigarclilik rishtalarini uzayti. Meros talashish oddiy hol bo'lib qoldi.

Ota mulkidan Manzuraning meros tama qilishi Hamidullani qattiq ranjidi, izzat-nafsiya tegdi. Xotiniga nafrat bilan qaradi:

- Yo'qol, ko'zimga ko'rinnal!
... Aka-uka otani qabrga qo'yish-gach, marosimlarini o'tkazishdi. Padari buzruk vorining o'limi Hamidulla va Rahimjonni yanada yaqin qilib qo'ydi.

Aka-uka bu yorug' dunyoda ular uchun boshqa aziz va mehribon yo'qligi-



ni qat'iy anglashgandi. Bir qorindan talashib tushgan jigarlarining orasiga raxna soladigan kuch yo'qday edi dunyoda. Ammo ota meros masalasi Hamidulla xotinini har qancha ogohlantirishiga qaramay, yopiqligicha qolmadı.

Hasadgo'y, ko'zi och, molparast yan-ganining niyatni xotini orgali Rahimjonga yetib kelgandi. Eshitib, ko'ngli vayron bo'ldi. Akasidan buni kutmagandi: "Nahotki, shu gap akamdan chiqqan bo'lsa, xotinlarni aralashitirmay o'zimga atytsa".

Rahimjon hovli-jojni sotmasa-da, baholab, qarz-qavola qilib, mashinasi ni sotib, yarim pulini yig'ib, akasini keta-ja no'jadi.

- E, e, ukajon, qanday shamol uchirdi? - Hamidulla uni quchoq olib kutib oldi. - Qani, qani, to'rga o't!

- Uzr, boshqa safar, - Rahimjon taklifi sovuqning rad etib, qo'lida-gi paketi xontaxta ustiga qo'ydi, - sizning ulushingiz!

- Ukajon, tinchlikni, qanaqa ulush,

tushunmadim.

- Ota merosni narxlab, tegishin-gizini olib keldim. Oling, aka!

Hamidulla nima gapligini anglab, tutoqib ketdi.

- Ablah, xotin!

U Manzura shu darajada pastkashlikka borib, yuziga oyoq qo'yadi, deb o'ylamagandi. Bo'lgan gapni Rahimjonga aytishga majbur bo'ldi.

- Odamlar qachon mol-dunyoga to'yar ekan-a?

- Kechiring, aka, bir og'iz sizdan so'ramay, qiziqqonlik qilibman.

- O'zimning ukajonim, yaxshiyam ota meros hovli-jojni sotib yubormabsan. Ma, pulingli olib, meros seniki, baxtli yashasang bo'ldi, - Hamidulla mehr bilan Rahimjonni bag'riga bosdi.

Ammo laqma xotini tufayli aka-uka o'rtasidagi mehr-oqibatga, oila, sado-qat, o'zaro ishonch, degan muqaddas tuyg'ularining darz ketishiga bir bayha qolgandi.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

Navbatchi muharrir:

A.SHERZOLOV.


Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda